

# O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA NAFOSAT TARBIYASI

**Giyosova Gulnoza Nuraliyevna**

Norin tumani 19 umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi  
Namangan, O'zbekiston

O'zbek xalqi boy an'ana va udumlarga ega, u to'y tantanalari, marosimlari, mehmon kutish, dasturxon tuzash, milliy taomlar pishirish va boshqa jihatlar bilan butun dunyoga mashhur. Asrlar mobaynida xalqning har qanday rasm-rusumlari, urf-odatlarini

qadriyatlarini avloddan-avlodga o'tib keldi. Mustaqillikka erishgach, bu odatlar, udumlar, qadriyatlar yanada mukammallashti, rivoj topdi.

Yoshlarni bar tomonlama estetik idrokli qilib tarbiyalash muammolarini hal etishda jamiyatimizning eng ishonchli tayanchi oiladir. Yoshlarni estetik tarbiyalash, awalo, ularning urf-odatlarini, qadriyatlarimizni tiklashda faol ishtirok etishlarini taqozo etadi. Bugungi kun oila masalasini, er bilan xotin orasidagi, ota-ona va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri va ijobiy hal etish farzandlar tarbiyasida asosiy shartlardan bin bo'lib qolmoqda.

Darhaqiqat, o'tmishda xalq pedagogikasi asosida tarbiya topgan komil insonlar ijobiy xislatlar sohibi sifatida barchaga namuna bo'lishgan. Tarbiya tarixidan ma'lumki, jamiyatning o'zagi sanalmish liq bir xonadonda bolaga yoshligidanoq sharqona go'zal odobning ilk saboqlari erinmay o'rgatilgan. Milliy tarbiya bolani ko'p tomonlama tarbiyalashni maslahat beradi. Bular badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, go'zallik va nafosat tarbiyasi, axloqiy tarbiya, vijdoniy-nafsiy tarbiya. Bu borada oila va jamiyat maqsadlari o'xshashdir.

Ma'lumki, oila totuvligi masalasi insoniyatning doimiy muam-molaridan biri bo'lib kelgan, chunki oila yoshlarni tarbiyalashning eng ishonchli maskanidir va unda estetik tarbiyaning ahamiyati kattadir.

Mustaqilligimizni mustahkamlash, har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish, yuksak estetik madaniyatni qaror toptirish hamda xalqning estetik qarashlarini shakllantirish singari ulkan vazifalarni oila tarbiyasiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Nafosat shunday gavhardirki, u har qanday o'rinda kattaga ham, kichikka ham birdek yarashadi. Shuning uchun ham boboka-lonlarimiz hamisha go'zal axloqqa intilib yashaganlar.

Hazrati inson... Dunyoda undan aziz-u mukarram xilqat bormi? Tangri Taolo insonni aziz-u mo'tabar etib, "Bandam — mening yerdagi xalifam" degan. Uning uchun hamma narsani, ehtiyojiga kerakli barcha noz-ne'matni ham muhayyo qilgan. Yer, samo, tog'-u toshlar, jannatmakon bog'-u rog'lar, sharqirab oqqan ming dardga davo obi hayot, qir-u, o'rmon-u, dengizlar, hamma-hammasini inson manfaati uchun bunyod etgan. Boshqa mahlu-qotlardan ustun tarzda insonga go'zal siymo, aql-u idrok, fahm-u farosat, yuksak did ato etgan. Bir-birini sevsin, hurmat-u e'zoz etsin deya qalbiga mehr-u muhabbat hissini solgan.

Insonni to'g'rilikka, oqibatli bo'lishlikka chaqirgan.

Insonning olamdagi barcha mavjudotdan sharifligining boisi, uning qalbi, ko'ngli, ruhi Arshi A'lodan berilganidir. Ammo shuni bilmoq kerakkim, dil odamining go'zalligi insonni farish-talar olamiga yaqinlashtiradi. Va, aksincha, inson dilining nopokligi, uni hayvonot olamiga teng qiladi.

Alisher Navoiy 18 ming olam haqida gapirib, bunday deydi: "Yer uzra yuz minglab ajoyib shakllar bor. Har bir shaklning o'ziga xos tovlanishlari, turlanishlari bor. Tasavur qilaylik; teva-rak-atrofdagi dengizlar yoki tog'lar, dasht-u sahrolar yoki gul-shanlar, to'rg'ay va bulbullarni maftun etuvchi rango-rang nafis gul va lolalar, turli iqlimlar va mamlakatlar, daryolar, buloqlar va hokazolar mavjud. Bular atrofida yana 9 qavatli

---

osmon, sobit-u sayyoralar, yulduzlar, mamlakatlar bo'lib, bari son-sanoqsizdir. To'rt unsur, yetti osmon, va olti tomon koinotning nodir va oliy asosidir. Koinotdagi barcha mavjudotlar ichida eng ulug'i Inson va uning ko'nglidir".

Dil boyliklari, ruh olamining go'zalliklari inson foni dunyo-dan ketayotganida ham u bilan birga abadiyat olamiga hamroh bo'lib boradi. Hamrohgina emas, odamning jon-u dili, asosiy mohiyati bo'lib, mangu rohat-farog'at topadi.

Inson dili ilohiy sirlarning gulshani bo'lib uni pokiza saqlash, aziz, muqaddas bilish har kimning insoniylik shartidir.

O'zbek oilasi zimmasiga yosh avlodni bar tomonlama mukammal shaxs qilib tarbiyalashdek yuksak mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. Darhaqiqat, inson shaxsini shakllantirish oila muhiti-dan boshlanadi, xususan, oilada fe'1-atvor, odatlar, tevarak atrofga munosabat, ilmiy dunyoqarash va e'tiqodlar vujudga keladi. Eng yuksak insoniy his tuyg'ular, ezgu niyatlar, betakror ma'naviyat, iqtidor, fahm-farosat, salohiyat, aql-zakovat ham oila bag'rida kamol topadi.

Ma'lumki, oila ijtimoiy-tarixiy xususiyatga va muayyan tuzilishga ega bo'lgan ijtimoiy guruhning ko'rinishidir. Chunonchi, lining a'zolarini qarindosh-urug'lik, nikoh, turmush sharoiti birligi, odob-axloq umumiyligi, ma'naviy ehtiyoj mosligi kabi xususiyatlar o'zaro bog'lab turadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo'lib, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy, ruhiy munosabatlarning uzviy birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan turmushdagi va oila a'zolari munosabatidagi o'zgarishlar uning moddiy-maishiy, iqtisodiy-moliyaviy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir.

Barcha narsa juft-juft bo'lib yaratilgan ekan, juft bo'lib yashash tabiat taqozosidir. Lekin oila bo'lib yashash barcha mahluqot orasida faqat odam nasliga xosdir. Yer yuzida birinchi oilani Odam Ato bilan Momo Havo tuzishgan. Ular uzoq ayriliqdan keyin bir-birlarini juda sog'inib qolishgach, diydor ko'rishganlar. Muhabbat tarixi ham birinchi otamiz va birinchi onamizdan boshlanadi, desak yanglishmaymiz. Muhabbat juda qadim narsa, lekin har bir yurak uni yangilaydi.

Oilalarning a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, o'zaro iqtisodiy-mulkiy, huquqiy, axloqiy, ruhiy aloqalar bilan bog'lanadi. Oilaning birinchi vazifasi o'z nasl-nasabini davom ettirishdan, solih va soliha farzandlarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining bo'sh vaqtini ko'ngilli o'tkazishni ta'minlashdan iboratdir.

O'zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o'xshash to-monlari ko'p. Shu bilan birga uning o'ziga xos jihatlari ham yo'q emas. Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha nikoh — ilohiy ahd, oila — muqaddasdir.

Estetik tarbiya masalalari va estetikaning nazariy muammolarini ishlab chiqish mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlarining eng mu-him qismidir.

Forobiy o'zining estetik qarashlarida inson shaxsini g'oyat ulug'-laydi. Insonni "ojiz banda", "hech narsaga qodir bo'lmagan mavjudot" darajasigacha yerga uruvchi hukmron aqidalarga zid o'laroq, mutafakkir nazarida inson eng oliy kamolot bo'lib, 'aql-idrok ziyosiga ega' o'zi uchun zarur bo'lgan hamma narsalarni yaratishga qodir borliqdir.

Agar inson faqat o'zi uchungina mehnat qilsa, u aytaylik, atoqli olim, buyuk donishmand, ajoyib shoir bo'lishi mumkin, ammo hech qachon chinakam mukammal va ulug' inson bo'la olmaydi.

Beruniyning fikricha, faqat tashqi jihatdangina emas, balki ichki mazmun jihatdan ham ko'rkam bo'lgan kishigina maqtovga munosibdir.

Insonning ichki va tashqi go'zalligi bir bo'lgandagina u ideal kamolotga erishadi. Muallif, 'ozodalik va orastalik' olijanoblikning o'zagidir" deb uqtiradi. Yuksak madaniyatli kishi bo'lgan Beruniy insonning tashqi yoqimli qiyofasi to'g'ridan-to'g'ri uning axloqiy qiyofasiga bog'liqligini uqtiradi.

---

A. Avloniy bolalarga ilk yoshidan boshlab estetik tarbiya berish kerakligini ta'kidlaydi. "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlantirmak, axloqimizni kuchlantirmak kerak, zehnimizni ravshanlantirmak lozim... "Agar tarbiya qiluvchi muallif olim bo'lib, amalsiz bo'lsa, bu shogirdlar axloqiga yomon ta'sir ko'rsatadi..." "Axloq sohibi, iffat egasi "qalbini, vijdonini pok va tilini yolg'on, g'iybat, bo'hton kabi so'zlardan saqlar..."

Avloniy muhabbat masalasida fikr yuritib, muhabbat insonning ma'naviy sifatini boyitadi, kishilar bir-birlari bilan muhabbat hissi bilan bog'lanadilar, muhabbat kishilar o'rtasidagi muno-sabatni mustahkamlovchi qudratli kuchdir, deydi.